

BIZGA TELEFON, TELEVIZOR, KOMPYUTER NIMA UCHUN KERAK?



Rasmlarga qarang.
Bularning qaysilari o'tmishtagi, qaysilari zamonaviy?



1. Odamlar bu narsalardan qanday foydalanadi?
2. Ularning tashqi ko'rinishi qanchalik o'zgargan?
3. Ovoz va tasvirning sifati ham o'zgaganmi?
4. Zamonaviy telefon, televizor va kompyuterlarning nimasi bir xil? Nimasi har xil?



Biz har kuni aloqa va axborot uzatish vositalaridan foydalanamiz. Pochta, telefon, televizor, gazeta-jurnallar, internet insonlarga hayotda yordam beradi. Bu vositalar yordamida dunyoning turli nuqtalarida yashaydigan odamlar muhim voqealardan xabardor bo'lib turishadi, chet eldag'i yaqinlari bilan ko'rishib, gaplashib turishadi.



Sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

1. Qadimda odamlar bir-biri bilan qanday aloqa qilgan?
Bugun-chi? Boshqa shahar yoki mamlakatdagi do'stlaringiz va yaqinlaringiz bilan qanday gaplashasiz? Misollar keltiring.
2. Qadimda odamlar dunyodagi muhim voqealar haqida qanday xabar topganlar? Hozir-chi?

Foydalanish uchun so'zlar: telefon, pochta, magnitofon, soat, choparlar, mayoqlar, xabar beruvchi mash'alalar, xat tashuvchi kabutarlar, televizor, radio, internet, gazeta-jurnallar, taqvimlar, jarchilar.



Turli manbalardan biz oladigan axborot biror faktga yoki kimningdir fikriga asoslangan bo'lishi mumkin. Fakt – bu vogelikda bor bo'lgan, rostdan ham sodir bo'lgan voqeа-hodisadir. Masalan, osmonдagi quyosh – bu fakt. Fikr esa insonning nimagadir munosabatidir. Bir narsaga nisbatan turli odamlarda turlicha fikr bo'lishi mumkin. Kimdir quyoshni osmonдagi eng muhim narsa desa, kimdir "Yo'q, quyosh hech ham muhim emas. Masalan, men bulutlarni tomosha qilishni yaxshi ko'raman", deyishi mumkin.

Bir necha aniq misollarda fikrlar bilan faktlarni farqlashni mashq qilib ko'ring.




Rasmlarga qarab, inson kompyuterdan qanday maqsatlarda foydalanishini aytib bering.



O'yinlar, turli qiziqish
va xobbilar uchun
vosita



Musika tinglash,
video tomosha qilish



Axborotni saqlash
va qidirish



Elektron pochta orqali
xabar yuborish



O'qishda va ishda
foydalanish



Bugungi kunda hayotimizni kompyuterlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kompyuter yordamida bilim olamiz, ishlaymiz, dam olamiz, muloqot qilamiz. Internet tarmog'i turli mamlakat va shaharlardagi odamlarni o'zaro bog'laydi.



1. Internetdan foydalanganmisiz? Hozir internetga nimalar orqali kirsa bo'ladi?
2. Dam olish yoki o'rtoqlaringiz bilan gaplashish uchun kompyuter yoki telefon sizga qanday yordam beradi?
3. Kompyuter yoki telefon orqali bilim olish mumkinmi?
4. Kompyuterdan, telefondan foydalanish qoidalariidan qaysilarini bilasiz?



Kichik guruhlarda "Kompyuter va telefondan sog'liqqa zararsiz foydalanish" mavzusida eslatma-jadval tuzing. Jadvalning birinchi ustuniga qoidalarni, tavsiyalarni yozing. Ikkinci ustunda esa ular qanday foya keltirishini yozing. Bu tavsiyalar haqida sinfdoshingizga aytib bering.



O'zingizni tekshiring. Keyingi uch kun ichida kompyuterda yoki telefonda o'yin o'ynashga qancha vaqt ketganini hisoblang. Darsda muhokama qilingan qoidalarga amal qilibsizmi?